

## Xizmatlar sohasining rivojlanishi

Xizmatlar sohasining rivojlanishi hozirgi zamон iqtisodiyotida muhim ahamiyat kasb etadi. Xizmatlar sohasida ilmiy bilimlar, nomoddiy shakldagi to'plamlar, axborot texnologiyalari va tadbirkorlik faoliyati integratsiyasi kabi iqtisodiy o'sishning asosiy omillari shakllanmoqda.

Iqtisodiyotning ushbu sektori turli xil faoliyat turlarini o'z ichiga olib, ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga yordam beradi. Ushbu faoliyatning yakuniy natijasi tayyor mahsulot emas, balki ko'rsatilgan xizmatlardir. Xizmatlar nafaqat korxonalarga, balki jismoniy shaxslar - yakuniy iste'molchilarga ham ko'rsatilishi mumkin.

Xizmatlar sohasi ko'lami juda xilma-xildir. Bunga mahsulotlarni ishlab chiqaruvchidan mijozga etkazib berish, shu qatorida ko'ngilochar tadbirlarni tashkillashtirish. Shuningdek, sartaroshxonalar, restoranlar, ta'mirlash ustaxonalari, sport klublari, sayyoqlik agentliklari va boshqalar kiradi.

Innovatsion texnologiyalarni joriy etish va an'anaviy xizmatlarni rivojlantirish bo'yicha aniq maqsadli kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish ishlab chiqarilgan bozor xizmatlar hajmini oshishiga olib keladi.

**Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi - 5178,4 mlrd. so'm**




**Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'ati - 113,6**

2019-yil yanvar-noyabr oylarida dastlabki ma'lumotlarga ko'ra ko'rsatilgan xizmatlar hajmi 5178,4 mlrd. so'mga teng bo'ldi. O'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 113,6 %ni tashkil etdi.

Ijtimoiy, siyosiy, jamoatchilik muammolarni, tumanlarning iqtisodiy salohiyatini ko'tarmasdan, ularning barqaror rivojlanishisiz hal qilib bo'lmaydi. Hududiy siyosat maqsadlariga faqat iqtisodiy jihatdan samarali bo'lgan loyihalarni amalga oshirish orqali erishish mumkin.

Zamonaviy O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish istiqbollari milliy va mahalliy manfaatlarni hisobga olgan holda respublikaning har bir iqtisodiy tumani va viloyatlarining barcha resurslaridan oqilona foydalanishiga bog'liqdir.

### 2019-yil yanvar-noyabr oylarida tumanlar kesimida ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibi, %




Xizmatlarning umumiy hajmida Urganch shahrining ulushi eng ahamiyatli bo'lib, 51,0 % ni tashkil etadi. Bu aholi real daromadlari boshqa viloyatlardan ko'ra yuqoriq ekanligi bilan izohlanadi.

Bundan tashqari, eng katta ulush Urganch (8,0 %), Hazorasp (6,1 %), Xonqa (5,0 %) va Gurlan (4,4 %) tumanlarida qayd etildi.

Xizmatlar sohasining eng past ko'rsatkichlari Yangibozor (3,1 %), Xiva (3,2 %) tumanlari va Xiva shahrida (3,2 %) kuzatildi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'satilgan bozor xizmatlari tarkibida eng katta ulushni savdo xizmatlari egallaydi. Shunday qilib, 2019-yil yanvar-noyabr oylarida ularning ulushi 27,9 % ni tashkil etdi. Shu bilan birga, yuqori ko'rsatkichlar transport xizmatlari (24,9 %), moliyaviy xizmatlar (16,8 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (5,3 %) bo'yicha qayd etildi.


### 2019-yil yanvar-noyabr oylarida xizmatlar tarkibi (jami hajmga nisbatan), %



Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar – 1,4 %, sog'lqnini saqlash sohasidagi xizmatlar – 1,7 %, Shuningdek ijara xizmatlari - 2,3 %, yashash va ovqatlanish xizmatlari bo'yicha - 2,3 % uncha yuqori bo'limgan ulush qayd etildi.

Deyarli barcha tumanlarda bozor xizmatlari hajmining o'sishi savdo va transport xizmatlari, moliyaviy xizmatlar kabi xizmatlar tarkibidagi ulushining o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatilmoqda.

**2019-yil yanvar-noyabr oylarida ayrim xizmat turlari hajmining  
taqqoslanishi, mlrd. so'm**




Joriy yilning yanvar-noyabr oylarida o'tgan yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmining o'sishiga moliyaviy xizmatlar (350,4 mlrd. so'mga), savdo xizmatlari (262,6 mlrd. so'mga) va transport xizmatlari (157,4 mlrd. so'mga) hajmining oshishi asosiy omillardan biri hisoblanadi.

**2019-yil yanvar- noyabr oylarida ishlab chiqarilgan  
xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari**

	Hajmi, mlrd. so'm	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, %
<b>Xizmatlar - jami</b>	<b>5178,4</b>	<b>113,6</b>
shu jumladan:		
aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	273,1	109,7
moliyaviy xizmatlar	872,9	161,1
transport xizmatlari	1 287,7	102,9
shu jumladan: avtotransport xizmatlari	1 227,5	101,6
yashash va ovqatlanish xizmatlari	121,3	112,8
savdo xizmatlari	1 444,1	107,2
ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	158,9	101,4
ta'lim sohasidagi xizmatlar	252,2	122,9
sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	90,2	107,0
ijara xizmatlari	117,1	104,3
kompyuterlar va ma'ishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	180,4	104,9
shaxsiy xizmatlar	162,8	100,8
me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	73,5	100,4
boshqa xizmatlar	144,2	126,9


Zamonaviy innovatsion texnologiyalardan foydalanish, aholining ta'lim va madaniy darajasini oshirish, ko'rsatilayotgan xizmatlar doirasini kengaytirishga yordam beradi.

**2019-yil yanvar- noyabr oylarida  
bozor xizmatlarining o'sish sur'ati, %**



2019-yil yanvar-noyabr oylarida o'tgan yilning mos davriga nisbatan moliyaviy xizmatlar (161,1 %), boshqa xizmatlar (126,9 %) ta'lim sohasidagi xizmatlar (122,9 %), yashash va ovqatlanish xizmatlari (112,8 %) kabi xizmatlarda yuqori o'sish sur'atlari kuzatildi.

**2019-yil yanvar- noyabr oylarida  
iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xizmatlar tarkibi, %.**




Hozirgi vaqtda savdo sohasi iste'molchilarining bozor talabini shakllantirish jarayonida faol ishtirokchi hisoblanadi. Bugungi kunda savdo xizmatlari mamlakat iqtisodiyotida ko'rsatilayotgan umumiyligi hajmining sezilarli qismini tashkil etdi. Respublikada zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalangan holda chakana savdo tarmoqlari faol rivojlanmoqda.

2019-yil yanvar-noyabr oylarida savdo xizmatlari hajmi 1444,1 mlrd. so'mga teng bo'ldi. Ko'rsatilgan xizmatlar umumiyligi hajmidagi ulushi 27,9 % ni tashkil etdi.

O'tgan yilning shu davriga nisbatan savdo xizmatlarining hajmi 262,6 mlrd. so'mga oshdi.

### 2019-yil yanvar- noyabr oylarida savdo xizmatlari tarkibi, %




- Avtomobil va mototsikllarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlarni qo'shgan holda avtomobil va mototsikllar ulgurji va chakana savdosidan tashqari
- Ulgurji savdo bo'yicha xizmatlar (avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari)
- Avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo bo'yicha xizmatlar

Savdo xizmatlari tarkibida avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo bo'yicha xizmatlar katta salmoqqa ega bo'lib, uning ulushi 71,0 % ni tashkil etadi.

Ulgurji savdo bo'yicha xizmatlarining (avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari) ulushi 22,2 % ga yetdi.

Avtomobillar va mototsikllarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlarni qo'shgan holda avtomobillar va mototsikllar ulgurji va chakana savdosи bo'yicha xizmatlar umumiyl savdo xizmatlari hajmida 6,8 % ni egallaydi.

### 2019-yil yanvar- noyabr oylarida transport xizmatlarining tarkibi, %




Transport xizmatlarining umumiyl hajmida quruqlikdagi transport xizmatlari - 97,4 %, omborga joylashtirish xizmatlar va yordamchi transport xizmatlari – 2,1 %, pochta va qurerlik xizmatlari – 0,5 % ni tashkil etdi.

Axborot-kommunikasiya texnologiyalari (AKT) va moliya-kredit muassasalarini xizmatlari tez rivojlanayotgan xizmat turlari hisoblanadi. Yangi texnologiyalarga va bozorni erkinlashtirish natijalariga tayanib, bu faoliyat turlari hozirgi vaqtida rivojlanishning yangi bosqichi sifatida paydo bo'ldi va bugungi kunda jamiyatning texnologik taraqqiyoti va iqtisodiyotning globallashuvida hal qiluvchi ro'l o'ynaydi.

Ko'rsatilayotgan xizmatlar sifatini oshirish, AKT sohasida innovasiyalarni joriy etish bo'yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar natijasida yangi turdag'i xizmatlarning paydo bo'lishi aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmini oshirishga tasir ko'rsatadi.

2019-yil yanvar-noyabr oylarida viloyat bo'yicha aloqa va axborotlashtirish xizmatlari 273,1 mlrd. so'mga teng bo'lib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati esa 109,7 % ni tashkil etdi. Ko'rsatilgan xizmatlar umumiy hajmidagi ulushi 5,3 % ni tashkil etdi.

### 2019 yil yanvar- noyabr oylarida aloqa va axborotlashtirish xizmatlari tarkibi, %



Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmida eng katta ulush (96,7 %) telekommunikasiya xizmatlari (simli va mobil aloqa xizmatlari, Internet, yo'ldosh aloqa xizmatlari va b.q.) hissasiga to'g'ri keladi.

Moliya-bank tizimini isloh qilish bo'yicha olib borilayotgan izchil chora-tadbirlar iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish, aholi bandligini va farovonligini ta'minlashda muhim omil bo'lmoqda.

Zamonaviy bank xizmatlari ko'rsatish, jumladan "raqamli" banklar va chakana xizmatlar ko'rsatishga ixtisoslashgan bank bo'linmalarini tashkil etish uchun innovatsion bank texnologiyalarini joriy qilish, masofadan turib bank xizmatlarini ko'rsatish, to'lov tizimini yanada rivojlantirish moliyaviy xizmatlarning jadal rivojlanishiga yordam beradi.

2019-yil yanvar-noyabr oylarida moliyaviy xizmatlar hajmi 872,9 mlrd. so'mga teng bo'lib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 161,1 % ni tashkil etdi.

### 2019-yil yanvar- noyabr oylarida moliyaviy xizmatlarning tarkibi, %



Moliyaviy xizmatlar umumiyligi hajmida sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlar (90,0 %) katta salmoqqa egadir.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar hajmida oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar 71,4 % ulush bilan etakchilik qilmoqda. Yashash bo'yicha xizmatlar ulushi 28,6 % ga to'g'ri keladi.

**2019-yil yanvar– noyabr oylarida yashash va ovqatlanish  
bo'yicha xizmatlarining tarkibi, %**

**Yashash va ovqatlanish  
bo'yicha xizmatlar -100 %**



**Oziq-ovqat va ichimliklar  
bilan ta'minlash xizmatlari  
71,4 %**



**Yashash bo'yicha xizmatlar  
28,6 %**


2018 - yil yanvar - noyabr oylari bilan taqqoslaganda yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar ulushining ko'payish omillaridan biri viloyatda turizm faoliyatni rivojlantirish hisoblanadi. Jahonga mashhur Xiva shahrining tarixiy yodgorliklari, zamonaviy shaharlar, O'zbekistonning betakror tabiatи, noyob milliy taomlari, shuningdek, xalqimizning betakror mehmondo'stligi sayohatchilarni o'ziga jalb qiladi.

O'tgan yilning mos davriga nisbatan, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning o'sish sur'ati 112,8 % ni tashkil etdi.

Ta'lif sohasidagi olib borilayotgan islohatlar avvalam bor insonlar ongini va fikrlash doirasini kengaytirishga hamda ma'naviyatini yuksaltirishga yordam bermoqda.

2019 - yil yanvar-noyabr oylarida ta'lif sohasidagi xizmatlar hajmi 252,2 mlrd. so'mga teng bo'ldi. Ko'rsatilgan xizmatlar umumiyligi hajmidagi ulushi 4,9 % ni tashkil etdi.


### Ta'lif sohasidagi xizmatlar hajmi va o'sish sur'atlarining taqqoslanishi



O'tgan yilning yanvar-noyabr oylari bilan taqqoslaganda ta'lif sohasidagi xizmatlarning hajmi 90,1 mlrd. so'mga oshdi.

Xorazm viloyatida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlar hajmining har oyda o'sishi kuzatilmoxda. Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlar hajmi 2018-yil yanvar-noyabr oylariga nisbatan 539,3 ming so'mga oshib, 2805,2 ming so'mga teng bo'ldi. O'sish sur'ati 111,7 % qayd etildi.

**Viloyat bo'yicha  
aholi jon boshiga ko'rsatkichlar**



Xizmatlar sohasini rivojlantirish ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotini shakllantirish uchun eng muhim shartlardan biri hisoblanadi. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan bozor islohotlarining ijobiy natijalari xizmatlar sohasini yanada rivojlantirish, jamiyatni rivojlantirishning eng muhim ijtimoiy-iqtisodiy vazifalarini hal etishda uning rolini oshirish bilan uzviy bog'liqdir.

*Xorazm viloyati statistika boshqarmasi  
Xizmatlar sohasi statistikasi bo'limi*

*Mas'ul: U.Bardiyev*